ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2025 / № 3. 1-3

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 3. 1-3

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.09.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.09.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.09.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

М У Н Д А Р И Ж А

TILSHUNOSLIK

XUDOYBERGANOVA DURDONA
Metaforalar shakllanishida antropotsentrik omillarning o‘rni 7

ЛУТФУЛЛАЕВА ДУРДОНА
Aksiolingvistikada qadriyat tushunchasi va uning turlari 10

SOBIROV ABDULHAY SHUKUROVICH
Andijon dialektal zonasi haqida 16

HAKIMOV MUHAMMADXON XO‘JAXOVICH
Genderoleksemalarning nominativ farqlanishi 20

QO‘ZIYEV UMIDJON YANDASHALIYEVICH
Dunyo tilshunosligida o‘zlashma so‘zlarga munosabat masalasi 25

ДУСТМУРОДОВ МАЪРУФЖОН МАНСУР ЎҒЛИ
Уйғур хоқонлиги даври ёдномалари туркумидан:
тариат (ТЭРХ) битиги ҳақида баъзи мулоҳазалар 28

UBAYDULLAYEV ALISHER ABDUSALOMOVICH
Ogahiy tarjimasidagi «Guliston» qo‘lyozmasining lingvistik tahlili 33

XUJAMKULOVA MAXBUBA BOBONAZAROVNA
Badiiy matnning presuppozitiv tahlili 38

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Tog‘ay Murod nasriy nutqida metaforaning statistik tahlili 42

SHAYMARDANOVA AZIZA RAIMJANOVNA
Lingvistik kodlar aralashuvi tushunchasi va uning
lakunarlik hodisasini bartaraf etishdagi imkoniyatlari 48

ESHNIYOZOVA GULHAYO HAMROQUL QIZI
Halima Xudoyberdiyeva she’rlarida badiiy
san’atlarni qo‘llash mahorati 51

SULAYMONOV BOBIR
Izoh tipidagi o‘quv lug‘atlarda leksikografik
semantizatsiyaga qo‘yiladigan talablar 55

BOYSARIYEVA SAODAT
Morfem o‘quv lug‘atining amaliy jihatlari 58

DAVIDOV YUNUS JUMMAYEVICH
Badiiy asarlarda ko‘pma’nolilikning uslubiy xususiyati 61

ZARIPOVA MATLUBA QULFITDINOVNA
O‘zbek va rus tillarda tarjimaning lingvokulturologik
va peyorativlik muammolari 64

AZIZ AMINI
Frazeologik birliklarning o‘rganilishi va ularning leksikografik
xususiyatlari (Afg‘oniston o‘zbek dehqonlari nutqi misolida) 66

МУНДАРИЖА

ALLAMURATOVA XOSIYAT
O‘zbek antroponimikasida apotropeik komponentlarning
sodda va qo‘shma ismlarda ifodalanishi 69

РАДЖАПОВА НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА
Синонимические отношения в словах с
гендерными признаками узбекского языка 73

HATAMOV ZIYODIN MAMADULLAYEVICH
Badiiy uslubda modal so‘zlarning funksional-stilistik xususiyatlari 76

ALIMOVA E’TIBOR KAROMAT QIZI
O‘zbek xalq ertaklarida mifonim va teonimik birliklar 81

MUXAMMADALIYEVA SHAXZODA MAXMUD QIZI
Maqollar orqali ramziy ma’noning ifodalanishi 89

ABRUYEVA ZAXRO SHOKIR QIZI
O‘zbek tili murojaat shakllari tizimida kognitiv metaforaning o‘rni 92

XUDAYBERGANOVA MUNIRA
«Muqaddimatu-l-adab» asari ustida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar:
tilshunoslik va manbashunoslik yondashuvlari 96

ABDUQAHHOROVA XOSIYAT ABDURASUL QIZI
Tarixga oid terminlarda o‘z va o‘zlashma qatlam 100

SHADMANOVA ALYONA SERGEYEVNA
Paustovskiy hikoyalarida syujet poetikasi 104

QOSIMJONOVA FARANGIZ FARID QIZI
Iboralarning so‘z turkumlariga munosabati 108

ADABIYOTSHUNOSLIK

ҚУРОНОВ ДИЛМУРОД ҲАЙДАРАЛИЕВИЧ
Эътибордан четда қолган нашр 111

ШОФИЕВ ОБИДЖОН БАХТИЁРОВИЧ
Психологик таҳлил ва бадиий драматизм
(Эркин Аъзамнинг «Таъзия» ва «Ступка» ҳикоялари мисолида) 117

АЛИМОВ ПАРДА, АВРИДДИНОВ ЖОБИР
Бадиий характер муаммоси 121

YULDOSHEV DILMUROD
Matyoqub Qo‘shjonov talqinida qodiriy fenomeni («O‘zbekning o‘zligi» asari misolida) 123

ДИЛФУЗА ПАРДАЕВА
Художественные интерпретации образа Амира Нимура и его
времени в русской и узбекской поэзии XX века 129

BOLTAYEVA GULCHEHRA SHOKIROVNA
Taxmislarning spetsifik belgilari 132

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 7-8
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

TARIXGA OID TERMINLARDA O‘Z VA O‘ZLASHMA QATLAM

Abduqahhorova Xosiyat Abdurasul qizi,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi

Til o‘z tarixiy taraqqiyoti jarayonida o‘zining ichki va tashqi imkoniyatlari orqali boyib, rivojlanib, o‘sib boradigan hodisadir. Tildagi bu hodisa barcha tillarda sodir bo‘lganidek, o‘zbek tilida ham uchraydi. Bu uzluksiz jarayonlar bir vaqtda yuz bermaydi, balki uzoq tarixiy taraqqiyot natijasidir. Bu borada tilshunos olim E.Begmatovning quyidagi fikrlarini aytish joizdir: «Bunday qonuniyatga ko‘ra, o‘z qatlam negizlari bazasida yangi so‘zlar yasaldi, mavjud so‘z ma'nolari kengaytirildi, ba'zi so‘zlarga qo‘shimcha nominatsion funksiyalar yuklandi, adabiy tilga xalq shevalaridan turli davrlarda, ehtiyojga ko‘ra, so‘zlar qabul qilinadi[1]«.

Hech bir til alohida boshqa tillardan ajralgan holda taraqqiy eta olmaydi. Shu bois, dunyo tillarining barchasida boshqa tillarning unsurlarini ko‘rishimiz mumkin. Buning bir qancha sabablari mavjud. «Xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar negizida tillararo so‘z almashtirish yoki o‘zaro so‘z o‘zlashtirish hodisasi sodir bo‘ladi. Chunki xalqlar o‘rtasida sodir bo‘lgan o‘zaro munosabatlar natijasida o‘zlashgan moddiy ashyolar va ma'naviy-ma'rifiy tushunchalar bilan birga, o‘z navbatida, ularni ifodalovchi leksemalar ham o‘zlashadi[2]«.

Tarixga nazar solsak, o‘zbek tilining o‘z qatlamiga mansub bo‘lgan umumiste'moldagi so‘zlarni genetik-etimologik jihatdan ayrim manbalarda boshqa so‘zlar bilan nomlanganining guvohi bo‘lamiz. O‘zbek tili lug‘at fondidagi so‘zlarning kelib chiqishini aniqlash ancha mushkul vazifa. Masalan, Mahmud Koshg‘ariy davrida «*bir turli mis»* ma'nosida qo‘llangan *chozt (cho‘zin)* so‘zining qachon va qanday qilib hozirgi «*cho‘yan*» holatiga kelganini yoki *chumuq, chumchuq, chumguq*[3] so‘zlarining hozirgi *chumchuq* tarzida qo‘llanishi bevosita tarixiy-etimologiya bilan bog‘liq.

So‘zlarni etimologik jihatdan tahlil qilishdan asosiy maqsad so‘zning qachon paydo bo‘lganligi, qaysi tildan kirganligi, qanday so‘z yasalish qolipidan paydo bo‘lganligi hamda qaysi davrda umumiste'molda bo‘lganligini aniqlashdan iborat. Etimologiya bilan bog‘liq bunday masalalar – muayyan so‘zning nega shunday shaklda ekanligi, uning qanday yuzaga kelganligi yoki qaysi tilga mansubligi, manba tildagi ma'nosining o‘zlashtiruvchi tilda kengayishi va torayishi yoki, umuman, boshqa ma'noga o‘tishi kabi masalalar nafaqat filologlarni, balki bu sohadan uzoq bo‘lgan kishilarni ham qiziqtirib keladi. Ularni hal qilish uchun esa chuqur ilmiy tadqiqotlar, izlanishlar olib borish zarur bo‘ladi. Etimologik tahlil bilan shug‘ullanuvchi olim o‘z tili va uning tarixini, tillarning o‘zaro qarindoshligini, tildagi tarixiy-fonetik, tarixiy-morfologik o‘zgarishlar va bundagi qonuniyatlarni, fanlar tarixini va kishilar turmush tarzini yaxshi bilmog‘i kerak. Ana shunday kompleks xarakterdagi tadqiqotlar natijasidagina ko‘zlangan maqsadga erishiladi. Etimologik tahlil va tadqiqotlarning natijalari til tizimi va strukturasidagi o‘zgarishlarni kuzatishda hamda yangidan-yangi so‘zlarning etimonini so‘zning dastlabki ma'nosi va shaklini aniqlashda va, nihoyat, etimologik lug‘atlar tuzishda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi[4].

Demak, etimologiyaning asosiy vazifasi dastlabki manbalarni hamda til lug‘at tarkibining shakllanish jarayonini va uning qadimiy holatini tiklashdan iborat. Ya'ni so‘zning kelib chiqishini sinxron nuqtayi nazardan emas, balki diaxron o‘rganishni maqsad qiladi. Dunyodagi har bir tilning muayyan miqdordagi so‘zlari bo‘lib, ana shu so‘zlarning shakl va ma'no o‘rtasidagi bog‘liqlik antik davr faylasuflarining ham diqqat markazida bo‘lgan. So‘zlarning tarixan o‘zgara borishi natijasida uning ilk shakl va ma'nosi ham o‘zgaradi. Bunday so‘zlarni asos va qo‘shimchalarga ajratish davomida murakkabliklar yuzaga keladi.

Bizga ma'lum bo‘lgan tarixiy manbalar tahlili tarixga oid terminlar Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘atit turk», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig», Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq», Amir

[1] Begmatov E. Hozirgi o‘zbek tilining leksik qatlamlari. – Fan, 1995. – B.103.
[2] Begmatov E. Hozirgi o‘zbek tilining leksik qatlamlari. – Fan, 1995. – B.103.
[3] Маҳмуд Қошғарий. Девону луғатит турк. Индекс-луғат. –Тошкент: 1967.
[4] Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти.Тошкент, 2017 – Б. 205.

Temurning «Temur tuzuklari», Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» va boshqa ko‘plab manbalarda uchraydi. Masalan, Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘atit turk» asarida izohli lug‘atda *tar*. (tarixga oid, tarixiy termin) pometali *«kapsan»*, *kefsan – xirmon ko‘tarilganda kambag‘al insonlarga beriladigan sadaqa-siylov* (ma’mur-amaldorlardan olinadigan soliq turi sifatida qo‘llanilgan)[1].

Tarixiy va tadrijiy taraqqiyot jarayonida o‘zbek tiliga o‘zga tillardan ko‘plab so‘zlar o‘zlashdi va aksincha, o‘z o‘rnida o‘zbek tili ham dunyo tillarini juda ko‘plab yangi-yangi so‘z va terminlar, frazema va neologizmlar bilan boyitdi. Jahon kommunikativ aloqa va axborot tizimida o‘zbek tilining o‘ziga xos o‘rni bor.

Mavjud izohli lug‘atlardagi terminlarni tahlilga tortganimizda, ko‘pgina leksema-terminlar o‘zlashgan qatlamga mansub ekanligini ko‘rdik. Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslanib, 2 jildli (1981), 5 jildli (2006–2008) hamda 6 jildli (2023) O‘TILda berilgan tarixga oid leksema-terminlarni etimologik xususiyati bo‘yicha quyidagicha tasnif qildik:

1. O‘z qatlam terminlari:
- tarixga oid bo‘lgan tub leksemalar;
- tarixga oid bo‘lgan yasama leksemalar.
2. O‘zlashgan qatlam terminlari:
- arabiy;
- forsiy;
- lotin tilidan o‘zlashgan;
- rus tilidan yoxud rus tili orqali o‘zlashgan (internatsional);
- fransuz tilidan o‘zlashgan;
- nemis tilidan o‘zlashgan.
- yunon tilidan o‘zlashgan;
- sanskrit tilidan o‘zlashgan;
- mo‘g‘ul tilidan o‘zlashgan.

Quyida 2, 5 va 6 jildli O‘TILda mavjud tarixga oid terminlarning yuqoridagi tasnif bo‘yicha tahlilini keltiramiz:

Sof o‘zbekcha terminlar:

Tarixga oid bo‘lgan tub leksemalar: *alyor, alg‘ov, amin, baydoq, Barlos, baqir, beka, bekat, bekach, biy, birong‘or, boyarlar.*

Tarixga oid bo‘lgan yasama leksemalar: *aminona, arizanavis, arizachi, Baqoiy, Bahoiylik, bahoizm, bekvachcha, beklik, beklarbegi, bitikchi, Bavurchi, bosmachilik, bosqoq.*

O‘z qatlamga mansub bo‘lgan terminlar morfemik jihatdan tahlil qilinganda o‘zga asosli terminlarga o‘zbekcha vosita shaklining qo‘shilishi tarix sohasida uchraydigan terminlarda ham kuzatiladi:

1) **arabcha so‘z+o‘zbekcha vosita shaklida hosil bo‘lgan terminlar:** *amirlik, arizachi, amlokdor, mirzaboshi va b;*

2) **fors-tojikcha so‘z+o‘zbekcha vosita shaklida hosil bo‘lgan terminlar:** *devonbegi, parvonachi, dahyakchi, dasturxonchi, farmonchi, o‘lponchi;*

3) **ruscha so‘z+o‘zbekcha vosita shaklida hosil bo‘lgan terminlar:** *dumaxona, pudratchi, rayijrokom, sentnerchi;*

O‘zlashgan qatlam terminlari:

Bu qatlamga mansub bo‘lgan terminlar xalqlar o‘rtasidagi ijtimoiy-siyosiy aloqalar, qavm-qarindoshlik munosabatlari hamda davlatlar o‘rtasidagi diplomatik aloqalar natijasida yuz bergan. Quyida izohli lug‘atlardagi o‘zlashma qatlam terminlarini ko‘rib chiqamiz.

Arab tilidan olingan (asosi arabcha) so‘zlarning termin sifatida berilishi: *amir, amlok, amlokdor, arbob, baynalminal, barot, vazir, jadid, juz’ya, zakot, iqto, manjaniq, markaz, muboshir, mulozim, munshiy, murofaa, mutavalli, mutasaddi, noib, rais, saddi, sadr, salib, salom, tanob* va boshq.

Fors tilidan olingan (asosi forscha) so‘zlarning termin sifatida berilishi: *devon, devonxona, yetimxona, jahongir, jahondor, jig‘ador, zindon, zindonbon, kanaxona, kanizak, nonxo‘rak, obxona, paygir, paysa, parvona, sarboz, sarbozxona, sardor, sarkor, saroy, sarona, sipoh, tilla, xonadon, xonaqoh, xo‘ja, chorakor, chorbozor, shabgard, shashpar, shahriston, qalandarxona* va boshq.

Fransuz tilidan olingan so‘zlarning termin sifatida berilishi*: pioneer, revanshizm, salyut, kadet, komissar, millioner, sotsiolizm.*

Nemis tilidan olingan so‘zlarning termin sifatida berilishi: *polismeyster, ritsar.*

Lotin tilidan olingan so‘zlarning termin sifatida berilishi: *gumanizm, imperator, kollegiya, kominteri, senat.*

Yunon tilidan olingan so‘zlarning termin sifatida berilishi: *varvar, patriarx, patriarxat, polis, romb.*

Sanskrit tilidan olingan so‘zlarning termin sifatida berilishi: *baxshi, sart.*

Mo‘g‘ul tilidan olingan so‘zlarning termin sifatida berilishi: *bahodir, dorug‘a, darxon, inoq, ulus.*

Rus tilidan olingan so‘zlarning termin sifatida berilishi: *batrak, boyarlar, knyaz, podporuchik, raykom, sovet, sovxoz, kartochka, chor, duma*.

2 tomli va 5 jildli O‘TILda polyak va italyan tillaridan kirib kelgan o‘zlashgan terminlar ham mavjud. Jumladan, *pan, partizan, rotmistr, xutor* va h.k.

Demak, statistik tahlilda arab va fors-tojik tilidan o‘zlashgan terminlar asosiy qismni tashkil etadi. Ma’lumki, arab tilida barcha so‘zlar o‘zakdan boshlanadi, o‘zaklar undosh tovushlardan iborat bo‘ladi va mavhum ma’noni ifodalaydi. Arabcha so‘zlar o‘zbek tiliga ko‘pincha aynan olinmay, ma’lum darajada

[1] Koshg‘ariy. M. Devonu lug‘tit turk. – Toshkent: Fan, 1961. – B. 230.

o‘zlashtirib, o‘zbeklashtirib, ko‘p hollarda o‘zbek tilining tovushlar tizimiga moslashtirib olingan[1]. O‘zbeklar bilan forslarning ko‘p asrlik iqtisodiy, madaniy aloqalari, fors tili Sharq olamida badiiy ijod tili mavqeyiga ega bo‘lganligi, o‘zbek shoirlari ona tilidan tashqari fors tilida ham ijod qilganligi, o‘zbeklar bilan tojiklar bir makonda birgalikda hayot kechirganligi tufayli o‘zbek tilining lug‘at boyligida eroniy tillarga mansub salmoqli qatlam shakllangan[2].

O‘zbek tilining lug‘at fondida arabcha o‘zlashmalarning mavjudligi tarixdan ma’lumki, hududimizning arablar tomonidan bosib olinishini asos sifatida ko‘rsatishadi. Haqiqatdan ham buning natijasida arab tili, arab madaniyati va ularning turmush tarzi aks etgan. Ya’ni, «arab tilining keng tarqalishi, bu tilga yozishga, o‘qishga, muomala qilishga va diniy aqidalarni bajarishga to‘g‘ri keldi. Bu hol o‘z navbatida o‘zbek-arab ikki tilliligi hodisasini tug‘dirdi[3]«. Ayrim adabiyotlarda boshqa tillardan kirgan o‘zlashma qatlam leksemalari boshqa tillardagi matnlarni tarjima qilish natijasida o‘zlashib ketgan.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida fors-tojik tilidan kirib kelgan so‘zlar ham salmoqli. Fors-tojikcha terminlarning o‘zbek tiliga o‘zlashganligiga bir qancha omillarni misol tariqasida keltirish mumkin:

– o‘zbek va tojik xalqlarining qadimdan bir hududda, bir xil ijtimoiy tuzum, iqtisodiy va madaniy-ma’naviy muhitda yashab kelayotganligi;

– o‘zbek-tojik va tojik-o‘zbek bilingvizmining keng tarqalganligi;

– tojik va fors tillarida ijod qilish an’analarining uzoq yillar davom etganligi;

– Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligida fors-tojik tilining alohida mavqega egaligi;

– adabiyot, san’at, madaniyat, urf-odatdagi mushtaraklik.

O‘sha vaqtda tijorat ishlari, rasmiy yozishmalar, tarixiy memuarlar fors-tojik tilida bo‘lgan va kishilar bu tilni chuqur o‘zlashtirishlari natijasida fors-tojik tilidan rasmiy uslub doirasidagi so‘zlar o‘zbek tiliga o‘zlashib qolgan. Bu haqda tadqiqotchi R.Sharopova o‘zlashma terminlar ijtimoiy-siyosiy terminologiya tizimiga voqelik va tushuncha nomi bilan birga o‘zlashgan o‘zlashmalar keyinchalik yangi mazmun kasb etgan, ya’ni voqelangan tushunchalarni ifodalashga xizmat qilayotganligini ta’kidlaydi[4].

Ko‘pgina ilmiy adabiyotlarda o‘zga tillardan so‘z o‘zlashtirishning asosiy manbayi sifatida boshqa tillardan qilingan tarjimalar ko‘rsatiladi[5]. Darhaqiqat, tilda so‘zga ehtiyoj ularni tarjima qilishga undaydi. Tarix sohasida ham arabcha va forscha so‘zlarning kirib kelishida mazkur tillardan qilingan tarjimalarning ahamiyati katta.

Tarix sohasiga tegishli lug‘atlarda o‘z qatlamga mansub terminlar bilan birgalikda o‘zlashma qatlam birliklari ham mavjud. Bundan tashqari, turli tillardan o‘zlashgan so‘zlarning kombinatsiyasidan yoxud ularni juftlash yordamida hosil bo‘lgan terminlar ham uchraydi. Masalan, ***arab+fors:*** *amlokdor, bojgir, vaqfnoma, vaqfxo‘r, mirshab, mulkdor, hukmdor, hujrador;* ***fors+arab:*** *zarvaraq, botmon, sarmunshiy, pilta;* ***fors+sanskrit:*** *sart;* ***fors+mo‘g‘ul:*** *dorug‘a, dorug‘ona;* ***fors+sanskrit+hind:*** *roja;* ***fors+hind:*** *paysa.*

A.Hojiyev aytganidek, rus tilidan o‘tgan so‘zni boshqa so‘z bilan almashtirish yoki almashtirmaslikni hal etishda bu so‘zning dunyo tillarida qo‘llanish-qo‘llanmaslik tomoniga ham e‘tibor berish kerak bo‘ladi. Bunda dunyodagi tillar bilan yaqinlashish, ular bilan bir xillikka intilish asosiy yo‘ldir[6]. Terminlar soddalik, aniqlik va yaxlitlik kabi talablariga mos bo‘lishi joiz.

Terminshunos V.V.Akulenko: «Zamonaviy madaniyatga oid eng muhim tushunchalarni leksik-semantik ifodalashning umume’tirof etilgan shakllari sifatida internatsionalizmlar hozirgi tillarning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Tillarni o‘rgatish, tarjima, xalqaro yoxud boshqa yordamchi tillarni yaratish jarayonlarida mavjud bo‘lgan til to‘siqlarini yengib o‘tishning barcha asosiy yo‘llarida, shubhasiz, o‘rni katta[7]«, – deb hisoblaydi. Darhaqiqat, tilimizdagi o‘zlashma qatlam tilning zaifligini aks ettirmaydi, aksincha, taraqqiyotini belgilaydi.

Terminlarning tarixiy-etimologik xususiyatlariga taalluqli ma’lumotlarning izohli lug‘atda berilishi tilning joriy leksik holati shakllanishiga qaysi tillar ta’siri va aloqadorligi haqidagi tasavvurlar paydo bo‘lishiga sabab bo‘lishini inobatga olib aytish mumkinki, keng foydalanuvchilar auditoriyasi uchun mo‘ljallanagan izohli lug‘atlarda terminologik birliklarning xalq tilidan yiroq bo‘lgan variantlari faol degan xulosaga olib kelmaslik tilimizga hurmatning bir ko‘rinishi bo‘la oladi.

[1] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 2-жилд. – Тошкент: Университет, 2003. – Б. 3-4.

[2] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 3-жилд. – Тошкент: Университет, 2009. – Б. 3.

[3] O‘zbek tili leksikologiyasi. –Toshkent: Fan, 1981. – B. 112.

[4]

[5] Кутина Л.Л. Формирование терминологии физики в России. – М.: Наука, 1966. – С. 245; Дадабоев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычних письменных памятниках XI-XIV вв.– Тошкент: Ёзувчи, 1991. – С.133.

[6] Hojiyev A. Termin tanlash mezonlari. –Toshkent: Fan, 1996 – B. 46.

[7] Акуленко В.В. Вопросы интернационализацийы словарного состава языка. Хариков: Изд-во Хариков. Унив-та, 1972. – С. 198.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, tarixiy terminologiya xalqning ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ma’naviy hayotini o‘zida aks ettiruvchi muhim qatlamlardan biridir. Unda o‘z qatlam bilan bir qatorda o‘zlashma qatlam ham alohida ahamiyat kasb etadi. O‘z qatlam milliy tilning ichki imkoniyatlari asosida shakllangan bo‘lsa, o‘zlashma qatlam turli tarixiy jarayonlar, madaniy almashinuvlar va xalqaro aloqalar natijasida tilimizga kirib kelgan terminlardan iboratdir. O‘z qatlam tilning milliy xususiyatlarini saqlash va tarixiy tushunchalarni ifodalashda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. O‘zlashma qatlam esa til boyligini kengaytirish, yangi tushunchalarni ifodalash va jahon ilm-fani bilan uyg‘unlashuvda muhim vosita hisoblanadi.

Shunday qilib, tarixiy terminlarda o‘z va o‘zlashma qatlamni birgalikda o‘rganish orqali til taraqqiyoti bosqichlarini aniqlash, xalqning tarixiy-madaniy aloqalarini ochib berish va milliy terminologiya rivojini ilmiy asosda yoritish imkoniyati yaratiladi.

Rezyume. Mazkur maqolada tarixiy terminologiyada o‘z qatlam va o‘zlashma qatlamning shakllanish jarayoni tahlil etilgan. O‘z qatlam milliy tilning ichki imkoniyatlari asosida vujudga kelgan tarixiy terminlardan tashkil topgan bo‘lsa, o‘zlashma qatlam esa arab, fors-tojik, turkiy, rus va g‘arb tillaridan kirib kelgan terminlar orqali boyiganligi ko‘rsatib o‘tiladi. Maqolada o‘z va o‘zlashma terminlarning semantik xususiyatlari, fonetik moslashuvi, tarixiy voqealar bilan bog‘liq holda shakllanishi hamda milliy terminologiyadagi o‘rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari tarixshunoslik va tilshunoslikda terminologiya masalalarini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Resume. This article analyzes the formation process of the native and borrowed layers in historical terminology. The native layer consists of historical terms created on the basis of the internal resources of the national language, while the borrowed layer has been enriched through terms adopted from Arabic, Persian-Tajik, Turkic, Russian, and Western languages. The article examines the semantic features, phonetic adaptation, and the formation of both native and borrowed terms in relation to historical events, as well as their role in national terminology. The findings of the study are of great importance for research in historiography and linguistics concerning terminology issues.

Резюме. В статье анализируется процесс формирования исконных и заимствованных пластов в исторической терминологии. Показано, что исконный пласт состоит из исторических терминов, возникших на основе внутренних возможностей национального языка, в то время как заимствованный пласт обогащается терминами, пришедшими из арабского, персидско-таджикского, тюркского, русского и западных языков. В статье научно анализируются семантические свойства исконных и заимствованных терминов, их фонетическая адаптация, формирование в связи с историческими событиями и их место в национальной терминологии. Результаты исследования имеют важное значение при изучении терминологических проблем в историографии и лингвистике.